



*Surayyo JUMANIYOZOVA,*  
*Toshkent davlat tibbiyot universiteti o'qituvchisi*  
*E-mail: jumaniyozovsurayyo181@gmail.com*

*TDU dotsenti, s.f.n D.Buranova taqrizi asosida*

## KASBIY TA'LIM TIZIMIDA TILLARNI O'QITISHDA BILINGVAL VA POLILINGVAL TA'LIM: METODIK IMKONIYATLAR

Аннотация

Mazkur maqolada kasbiy ta'lim tizimida tillarni o'qitishda bilingval va polilingval ta'limni joriy etishning metodik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ko'p tilli ta'limning nazariy asoslari, fan va til integratsiyasi, CLIL va translanguaging yondashuvlarining kasbiy ta'limdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, bilingval va polilingval muhitda talabalarning kasbiy-kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali metodlar ko'rib chiqiladi. Maqola xulosalari kasbiy ta'lim muassasalarida tillarni o'qitish jarayonini takomillashtirishga qaratilgan amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

**Kalit so'zlar:** Kasbiy ta'lim, bilingval ta'lim, polilingval ta'lim, metodik imkoniyatlar, CLIL, translanguaging.

## БИЛИНГВАЛЬНОЕ И ПОЛИЛИНГВАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В ПРЕПОДАВАНИИ ЯЗЫКОВ В СИСТЕМЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ: МЕТОДИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ

Аннотация

В данной статье анализируются методические возможности внедрения билингвального и полилингвального обучения в системе профессионального образования при обучении языкам. Рассматриваются теоретические основы многоязычного образования, а также значение интеграции предметного содержания и языка, подходов CLIL и translanguaging в профессионально ориентированном обучении. Особое внимание уделяется эффективным методам формирования профессионально-коммуникативных компетенций обучающихся в условиях билингвальной и полилингвальной образовательной среды. Результаты исследования могут быть использованы для повышения качества языковой подготовки в учреждениях профессионального образования.

**Ключевые слова:** Профессиональное образование, билингвальное обучение, полилингвальное обучение, методические возможности, CLIL, translanguaging.

## BILINGUAL AND MULTILINGUAL EDUCATION IN LANGUAGE TEACHING WITHIN THE VOCATIONAL EDUCATION SYSTEM: METHODOLOGICAL OPPORTUNITIES

Annotation

This article analyzes the methodological possibilities of implementing bilingual and multilingual education in the system of vocational education in language teaching. The study examines the theoretical foundations of multilingual education, as well as the role of content and language integration, CLIL and translanguaging approaches in professionally oriented instruction. Particular attention is paid to effective methods for developing students' professional and communicative competences in a bilingual and multilingual educational environment. The findings of the study can be applied to improve the quality of language training in vocational education institutions.

**Key words:** Vocational education, bilingual education, multilingual education, methodological possibilities, CLIL, translanguaging.

**Kirish.** Globallashuv sharoitida kasbiy ta'lim tizimiga qo'yilayotgan talablar tobora ortib bormoqda. Zamonaviy mutaxassis nafaqat o'z kasbini mukammal egallagan, balki bir necha tilda professional darajada muloqot qila oladigan shaxs bo'lishi zarur. Shu jihatdan, kasbiy ta'lim tizimida tillarni o'qitishda bilingval va polilingval ta'limni joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston qonunchiligida kasbiy ta'limda bilingval va polilingval ta'limni to'g'ridan-to'g'ri belgilovchi alohida qonun bo'lmasa-da, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun asosida, milliy ta'lim siyosati va davlat dasturlari orqali til o'qitish, ayniqsa, davlat tilini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'riladi, bunda umumiy ta'lim va kasbiy ta'lim tizimlarida o'zbek tilini o'qitish metodikalarini takomillashtirish muhim, garchi bilingvallik/polilingvallik maqsadlari ham Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va innovatsion loyihalar orqali amalga

oshirilayotgan bo'lsa-da, rasmiy qonun normasi emas, balki strategik yo'nalishdir. Hozirgi siyosat asosan o'zbek tilini yanada rivojlantirishga qaratilgan bo'lsa-da, bu jarayon chet tillarni o'qitishni, jumladan, kasbiy sohalarida xalqaro tillarni o'rganishni ham o'z ichiga oladi.

Bilingval va polilingval ta'lim tilni alohida fan sifatida emas, balki kasbiy faoliyat vositasi sifatida o'rgatishga imkon beradi. Bu esa talabalarda kasbiy yo'naltirilgan til kompetensiyasini shakllantirishda muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur maqolaning maqsadi — kasbiy ta'lim tizimida tillarni o'qitishda bilingval va polilingval ta'limning metodik imkoniyatlarini tahlil qilishdir. Kasbiy ta'limda bilingval (ikki tilli) va polilingval (ko'p tilli) ta'limni rivojlantirish ustuvor vazifa bo'lib, bu orqali xalqaro talablarga mos kadrlar tayyorlanadi, bu esa o'quv-metodik ishlar, loyihalar va qo'llanmalar yaratish orqali amalga oshiriladi.

### 1. Bilingval va polilingval ta'limning nazariy asoslari.

Bilingval ta'lim — o'quv jarayonida ikki tilning parallel yoki integratsiyalashgan holda qo'llanishiga asoslangan ta'lim shaklidir. Polilingval ta'lim esa ikki va undan ortiq tillardan foydalanishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuvlar til o'rganishni tabiiy muhitga yaqinlashtirib, bilimlarning chuqurroq o'zlashtirilishiga yordam beradi. Kasbiy ta'limda bilingval ta'lim (ikki til, masalan, o'zbek va ingliz tili) va polilingval ta'lim (ko'p tilli, ko'proq xorijiy tillar) tizimlari talabalarga ikki yoki undan ortiq tilda kasbiy bilim olish, xalqaro hamkorlik qilish va zamonaviy talablarga javob berishga yordam beradi, bu esa kasbiy leksikani o'rganish, muloqot qobiliyatini rivojlantirish va madaniyatlarni o'zlashtirish orqali amalga oshiriladi.

Kasbiy ta'limda ko'p tillilik, ayniqsa, tibbiyot, texnika, iqtisod va axborot texnologiyalari sohalarida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki professional terminologiya va ilmiy axborotning katta qismi xorijiy tillarda taqdim etiladi.

Bilingvizm nazariyasi: Ikki tilda gapirish qobiliyatining rivojlanishi, bu jarayonda birinchi tilning ikkinchi tilni o'rganishga qanday ta'sir qilishi (masalan, interferensiya va transfer nazariyalari), aqliy jarayonlar (xotira, diqqat, muammolarni hal qilish)ga ta'siri o'rganiladi.

Interferensiya nazariyasi ikki yoki undan ortiq turli hodisaning bir-biriga aralashuvi natijasida yuzaga keladigan o'zgarish hisoblanadi

Fizikada: Ikki yoki undan ortiq to'lqinning qo'shilishi natijasida yorug'lik, tovush kabi intensivlikning o'zgarishi.

Tilshunoslikda: Ona tilidagi qoidalar, talaffuz, lug'at boyligining chet tilini o'rganish jarayonida aralashuvi. Bu tillararo interferensiya (interlanguage interference) deb ataladi.

Ijoby interferensiya :Ona tili qoidalarining chet tilda yordam berishi.

Salbiy interferensiya: Ona tilidagi noto'g'ri qoidalarining chet tilda xatolarga olib kelishi.

Transfer nazariyasi bir holatda o'rganilgan bilimlarni boshqa holatda qo'llash (transfer of learning).

Tilshunoslikda :

Ijoby transfer: Ona tili va chet tili o'rtasidagi o'xshashliklar tufayli yangi tilni osonroq o'zlashtirish (masalan, ingliz va nemis tillaridagi o'xshash so'zlar).

Salbiy transfer: Ona tilidagi grammatik qoida yoki so'zning noto'g'ri qo'llanilishi (bu ham interferensiyaning bir ko'rinishi).

Bilingval va polilingval ta'limning umumiy maqsadi:

O'quvchilarda ikkita yoki undan ortiq tillarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish, aqliy, kognitiv rivojlanishni rag'batlantirish, madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini o'stirish,

o'quvchilarda tilshunoslikka oid tushunchalarni chuqurlashtirish.

Ushbu nazariy asoslar bilingval va polilingval ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda, o'qitish metodlarini tanlashda va ta'lim samaradorligini baholashda muhim qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

2. Kasbiy ta'limda tillarni o'qitishning metodik imkoniyatlari

Bilingval va polilingval ta'limni amalga oshirishda quyidagi metodik imkoniyatlar muhim hisoblanadi:

CLIL yondashuvi

CLIL (Content and Language Integrated Learning) — fan mazmuni va tilni integratsiyalashgan holda o'qitishga asoslangan yondashuvdir. Bu metod orqali talabalar kasbiy fanlarni o'rganish jarayonida bir vaqtning o'zida chet til kompetensiyalarini ham rivojlantiradilar.

Integrativ yondashuvlar (Integrative Approaches), jumladan CLIL (Content and Language Integrated Learning),

o'quv jarayonida til va fanni bir vaqtda o'qitishga yo'naltirilgan metod hisoblanadi. Ushbu yondashuvda tarix, geografiya yoki tabiiy fanlar kabi fanlar orqali til o'rganiladi va bunda fan mazmuni ham, til kompetensiyasi ham teng ahamiyat kasb etadi. Ikki yo'nalishli ushbu maqsad o'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirish bilan bir qatorda, fan mavzularini yanada puxta o'zlashtirishga imkon yaratadi.

CLIL yondashuvi o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, tilni real va mazmunli kontekstda qo'llash ko'nikmasini shakllantiradi, tanqidiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi hamda fan sohasidagi bilimlar bilan til salohiyatini uyg'un holda rivojlantirishga xizmat qiladi.

CLIL yondashuvining asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

- Ikki tomonlama maqsad: fan mazmunini (Content) va tilni (Language) birgalikda o'zlashtirish.

- Integratsiyalashganlik: til mustaqil fan sifatida emas, balki fanlarni o'qitish vositasi sifatida qo'llanadi.

- 4C modeli: Kontent (Content), Kommunikatsiya (Communication), Kognitiv jarayonlar (Cognition) va Madaniyat (Culture) komponentlarini qamrab oladi.

CLIL yondashuvining afzalliklari:

- Mazmunni chuqur anglash: o'quvchilar fan bo'yicha bilimlarni egallash jarayonida tilni fikrni shakllantirish va ifodalash vositasi sifatida qo'llaydilar.

- O'quv motivatsiyasining oshishi: til o'rganish o'quvchilarni qiziqtiradigan fan mazmuni bilan bog'langani sababli o'rganish jarayoni samaraliroq bo'ladi.

- Metalingvistik kompetensiyaning rivojlanishi: tilning tuzilishi va funksiyalarini ongli ravishda anglash imkoniyati kengayadi.

CLIL yondashuvini amaliyotga tatbiq etish:

- tarix, biologiya, fizika kabi fanlarni chet tili orqali o'qitish;

- fan sohasiga oid lug'at boyligi, gap qurilmalari va faoliyatga yo'naltirilgan til birliklarini tizimli ravishda o'rgatish.

Xulosa qilib aytganda, CLIL yondashuvi ta'lim jarayonida til va fan o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni mustahkamlab, o'quvchilarni globallashtirish sharoitida samarali muloqot qila oladigan, keng bilim va ko'nikmalarga ega shaxslar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Translanguaging

Translanguaging strategiyasi o'quv jarayonida tillar o'rtasida erkin o'tishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv talabalarining tushunishini osonlashtiradi va murakkab kasbiy tushunchalarni samarali o'zlashtirishga yordam beradi. Translanguaging

Kommunikativ va kompetensiyaviy yondashuv

Kasbiy vaziyatlarga asoslangan mashqlar, rolli o'yinlar va muammoli topshiriqlar orqali talabalarda real kasbiy muloqot ko'nikmalari shakllantiriladi.

3. Bilingval va polilingval muhitda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish.

Ko'p tilli ta'lim muhiti talabalarni mustaqil fikrlashga, axborotni tahlil qilishga va kasbiy faoliyatda tillardan samarali foydalanishga undaydi. Fanlararo integratsiya orqali talabalarda kasbiy bilimlar bilan bir qatorda madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya ham rivojlanadi.

Bilingval va polilingval yondashuv talabalarining o'quv motivatsiyasini oshirib, ularning mehnat bozorida raqobatbardoshligini kuchaytiradi.

Bilingval va polilingval ta'lim muhiti pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim pedagogik resurs hisoblanadi. Bunday muhitda til nafaqat o'rganish obyekti, balki ta'lim jarayonini tashkil etish,

pedagogik muloqotni amalga oshirish hamda metodik faoliyatni rivojlantirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Ko'p tilli ta'lim sharoitida bo'lajak pedagoglarda kasbiy-kommunikativ kompetensiya shakllanadi. Bu kompetensiya ta'lim jarayonida o'quvchilar bilan samarali muloqot qilish, pedagogik vaziyatlarni tahlil etish va fan mazmunini turli tillarda tushuntirish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Fan va til integratsiyasiga asoslangan mashg'ulotlar pedagoglarda darsni rejalashtirish, o'quv materiallarini moslashtirish va interfaol metodlardan foydalanish malakalarini rivojlantiradi.

Bilingval va polilingval muhit pedagogik tafakkurning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, pedagoglarda tanqidiy fikrlash, refleksiya va didaktik qarorlar qabul qilish

qobiliyatlari shakllanadi. Turli tillarda pedagogik manbalar bilan ishlash jarayoni metodik bilimlarning kengayishiga va kasbiy tajribaning boyishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, ko'p tilli ta'lim pedagoglarda madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantiradi. Bu esa turli madaniy va lingvistik muhitda ishlashga tayyor, tolerant va moslashuvchan pedagog shaxsini shakllantirishga yordam beradi. Bunday kompetensiya zamonaviy ta'lim tizimida pedagog faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, bilingval va polilingval muhit pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, ularning metodik salohiyatini rivojlantirish hamda ko'p tilli ta'lim sharoitida samarali faoliyat yurita oladigan mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### Bilingval va polilingval muhitda pedagogik kasbiy kompetensiyalar

Kompetensiya turi	Mazmuni	Bilingval/polilingval muhitdagi namoyon bo'lishi
Kasbiy-kommunikativ kompetensiya	Ta'lim jarayonida samarali pedagogik muloqotni amalga oshirish qobiliyati	Fan mazmunini ikki yoki undan ortiq tilda tushuntirish, pedagogik vaziyatlarda mos til birliklarini tanlash
Metodik kompetensiya	Darsni rejalashtirish, metod va usullarni tanlash hamda qo'llash	CLIL, integrativ va interfaol metodlardan foydalanish, ko'p tilli o'quv materiallarini ishlab chiqish
Didaktik kompetensiya	Ta'lim mazmunini o'quvchilarning yosh va tayyorgarlik darajasiga moslashtirish	O'quv materiallarini soddalashtirish, terminologiyani izohlash, fan va til integratsiyasini ta'minlash
Kognitiv kompetensiya	Tahliliy va tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyati	Turli tillardagi pedagogik axborotni solishtirish, umumlashtirish va tahlil qilish
Madaniyatlararo kompetensiya	Turli madaniy va lingvistik muhitda samarali faoliyat yuritish qobiliyati	Madaniy farqlarni inobatga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish, tolerant munosabatni shakllantirish
Refleksiv kompetensiya	O'z pedagogik faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish qobiliyati	Ko'p tilli dars jarayonini baholash, metodik xatolarni aniqlash va ularni bartaraf etish
Innovatsion kompetensiya	Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashga tayyorlik	Raqamli vositalar, onlayn platformalar va ko'p tilli resurslardan foydalanish

Mazkur kompetensiyalar bilingval va polilingval ta'lim muhiti sharoitida o'zaro uzviy bog'liq holda shakllanib, pedagoglarning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishga hamda ularning zamonaviy ta'lim talablariga moslashuvini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, kasbiy ta'lim tizimida tillarni o'qitishda bilingval va polilingval ta'lim muhim metodik imkoniyatlarga ega. Ushbu yondashuvlar talabalarning kasbiy va til kompetensiyalarini uyg'un rivojlantirishga xizmat qiladi. Bilingval va polilingval ta'limni tizimli ravishda joriy etish kasbiy ta'lim sifatini oshirishning samarali vositasi hisoblanadi.